



## XODIMNING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARINI XIMOYA QILISH TUSHUNCHASI

*Abdug‘ofurov Baxriddin Abdug‘ani o‘g‘li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti Tyutori*

*[abdugofurovbaxriddin@gmail.com](mailto:abdugofurovbaxriddin@gmail.com)*

*+998944482203*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish tushunchasi, bugungi kunda xodimlarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilishga bo'lgan ehtiyoj va sabablar, shaxsga doir ma'lumotlarga nimalar kirishi, ushbu ma'lumotlarni himoya qilishda qanday nazariya, doktrina va kosepsiyalarga asoslanishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy texnik vositalar inson, jamiyat va davlat hayoti uchun zarur bo'lgan muhim miqdordagi ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi axborot munosabatlарining deyarli har qanday sub'ekti uchun turli ma'lumotlar ba'zalariga kirish va ulardan foydalanish imkonini beradi, shu bilan birga axborotni olish va tarqatish tezligi so'ngi yillarda o'tgan asrga nisbatan ham sezilarli darajada oshdi.

Axborot odamlar hayoti va ijtimoiy faoliyatining ajralmas sharti, ularning doimiy e'tiborining predmetidir, jamiyat mavjud ekan, u ham mavjud bo'ladi. U har qanday ijtimoiy munosabatlarga hamroh bo'ladi, shaxsning qarorlari va harakatlarini belgilaydi.



Insonlar haqiqiy axborot muhitida yashamoqdalar. Axborot texnologiyalari hamma uchun mavjud bo‘lib, ular jamiyat faoliyatining axborot bilan bog‘liq deyarli barcha sohalariga tarqaldi<sup>1</sup>.

Ushbu jarayonda xodimning shaxsga doir ma’lumotlarini himoya qilish axborot zamonining dolzabr masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Shunday ekan avvalo xodimning shaxsga doir ma’lumotlariga nimalar kiradi?, qanday nazariya, konsepsiya va doktrinalar ularni himoya qilishning asosi hisoblanadi? - degan savollarga javob topmoq zarur.

Savollarga turli manbalar asosida javob berilishi mumkin.

Xususan, Umumiylar ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari (<https://gdpr-info.eu>), Xalqaro mehnat tashkiloti (<https://www.ilo.org>), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ning maxfiylik siyosati (<https://www.oecd.org>), Xalqaro ma’lumotlarning maxfiyligi to‘g‘risidagi qonun yoki “Journal of Data Protection & Privacy” kabi jurnallardagi maqolalarda quyidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishda quyidagi nazariyalar mavjud.

### 1. Raqamli suverenitet nazariyasi

Davlatlar va kompaniyalar xodimlarning ma’lumotlarini avtonom himoya qilishni ta’minlashi, xorijiy xizmatlar va texnologiyalarga qaramlikni minimallashtirishi kerak.

### 2. Axborot assimetriyasi nazariyasi

Ish beruvchilar xodimlar haqida ko‘proq ma’lumotga ega, bu esa shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun qo‘srimcha choralarni talab qiladi.

### 3. Kiberxavf nazariyasi (Cyber Risk Theory)

<sup>1</sup> Sultonmurodov S. D. O. G. L. Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlashning omillari va o’ziga xos jihatlari //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 339-346.



Raqamli texnologiyalar xodimlarning shaxsiy ma'lumotlariga yangi tahdidlar yaratishini taklif qiladi, bu esa kiberxavfsizlik nazoratini kuchaytirishni talab qiladi.

4. Ishonchga asoslangan tizimlar nazariyasi (Trust-Based Systems Theory)

Ma'lumotlarni himoya qilish nafaqat qat'iy qonuniy mexanizmlar, balki ish beruvchi va xodimlar o'rtaсидаги ishonch asosida qurilishi kerakligini anglatadi.

5. Raqamli izlar nazariyasi (Digital Footprint Theory)

Xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari qanday qilib onlayn iz qoldirishi va ularni qanday nazorat qilish va himoya qilish mumkinligini ko'rib chiqadi.

Xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha bir nechta doktrinalar mavjud hisoblanadi. Ulardan asosiy doktrinalarini quyida ko'rib chiqamiz.

1. Raqamli mehnat xavfsizligi doktrinasi;

Xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini raqamli muhitda himoya qilishning asosiy ob'ektlaridan biri sifatida belgilaydi va ularning xavfsizligi uchun maxsus choralar ko'rishni talab qiladi.

2. Xodimlar haqida ma'lumot avtonomiysi doktrinasi;

Bu shuni anglatadiki, xodim o'z ma'lumotlarini to'liq nazorat qilish huquqiga ega, shu jumladan ularni qayta ishlashga rozilik berish va bekor qilish ham uning ixtiyorida.

3. Ma'lumotlarni minimallashtirish doktrinasi;

Unda aytishicha, ish beruvchilar faqat mehnat funktsiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni to'plashlari kerak bo'ladi.

4. Korporativ ma'lumotlar uchun javobgarlik doktrinasi;

Kompaniyalar o'z xodimlarining shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligi va himoyasi uchun to'liq huquqiy va axloqiy javobgarlikni belgilaydi.

5. Mehnat doktrinasida maxfiylik;



Ish beruvchining o‘zining manfaatlari va xodimlarning huquqlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kuzatish va to‘plash imkoniyatini cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 12-bob, 6-paragrafi Xodimning shaxsga doir ma’lumotlarini himoya qilishga bag‘ishlangan.

Mehnat kodeksi 175-moddasida “Mehnatga oid munosabatlar sababli ish beruvchiga taqdim etilgan, xodimning, shuningdek uning oila a’zolarining hayotidagi faktlar, voqealar va holatlar to‘g‘risidagi axborot xodimning shaxsga doir ma’lumotlaridir” – deb belgilangan.

Mehnat kodeksiga ko‘ra Shaxsga doir ma’lumotlar jumlasiga xodim to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar kiritilgan:

familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi va joyi;  
jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;  
ma’lumoti (qachon va qaysi ta’lim tashkilotlarini tugatganligi, diplomlari  
raqamlari, diplom bo‘yicha tayyorgarlik yo‘nalishi yoki mutaxassisligi, malakasi);  
mehnat faoliyati boshlanganidan e’tiboran bajarilgan ishlari (harbiy xizmatni  
qo‘sib hisoblaganda);  
doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan manzili;  
pasportiga oid ma’lumotlar (seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon  
berilganligi) va identifikatsiya ID-karta ma’lumotlari;  
shaxsiy telefon raqami, elektron pochta manzili;  
harbiy majburiyatga daxldorligi, harbiy ro‘yxatga olish bo‘yicha  
ma’lumotlar (zaxirada bo‘lgan fuqarolar va harbiy xizmatga chaqirilishi lozim  
bo‘lgan shaxslar uchun);  
soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;  
shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ining raqami;  
majburiy tibbiy ko‘rik natijalari;  
xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari;



oilaviy ahvoli, yaqin qarindoshlarining familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan sanalari;

xodimning va (yoki) uning oila a’zolarining hayotidagi ish beruvchiga ma’lum bo‘lib qolgan faktlar, voqealar hamda holatlar haqidagi boshqa ma’lumotlar<sup>2</sup>.

Shaxsiy ma’lumotlar zamonaviy jamiyat hayotining turli sohalarida qo‘llaniladi va ularning daxlsizligi huquqi mehnat qonunchiligi bilan ham himoyalangan.

Shaxsga doir ma’lumotlar ish beruvchiga mehnat funksiyasini samarali bajarish uchun xodimni jalg qilish imkonini beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Shu o‘rinda bir savolga javob topishlik muhim hisoblanadi. Ish beruvchi ishga kirayotgan xodimdan qanday hujjatlar talab qilib olishi mumkin?

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 124-moddasi bo‘yicha va qonunlarda keltirilgan ayrim hujatlardan tashqari xodimdan boshqa hujjat talab qilish ta’qilanganadi.

Mehnat kodeksida:

oxirgi ish joyi bo‘yicha tasdiqlangan qog‘oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko‘chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o‘rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma’lumotnomani taqdim etadi;

harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishinchalarga harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

oliy yoki o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’lim tashkilotini tamomlaganligi to‘g‘risidagi diplomni, qaysi ishni bajarish uchun faqat maxsus ma’lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslar qo‘yilishi mumkin bo‘lsa, o‘sha ishga

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6261781> (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi)



kirish chog‘ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoxud boshqa tegishli hujjatni;

soliq to‘lovchining identifikasiya raqamini;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqamini;

jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini

1030-sonli O‘zbekiston respublikasi qonuni bilan xodimdan ishga kirayotgan vaqtda passport yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa hujjat talab qilish bekor qilindi. Unga qadar esa xodim ish beruvchiga passport, ID karta yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjat taqdim etishi lozim edi.

Voyaga yetmagan shaxslarni, aniqrog‘i 16 yoshga to‘lgan shaxslarning mehnat faoliyati bilan shug‘illanishga Mehnat kodeksida ruxsat berilgan. Ayrim xollarda esa 15 yoshdan ham ularning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan ruxsat beriladi. Id karta 16 yoshdan berilishini hisobga olsak ulardan tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani olish tabiiy xoldir. 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning shaxsni tasdiqlovchi asosiy hujjati tug‘ilganlik haqida guvohnomasidir.

Va yana o‘rindoshlik haqida guvohnoma, harbiy xizmatga majburlar uchun harbiy guvohnoma hamda ma’lumoti haqidagi guvohnoma. Ushbu hujjatlarning ham ish jarayonida ta’siriga qarab majburiy hujjatlar sirasiga kiritilgan.

Lekin, shunday maxsus vazifalar yoki vaziyatlar ham borki, ularga alohida hujjatlar bo‘lishi majburiy hisoblanadi. Misol uchun, pandemiya davrida xodim Covid-19 ga qarshi emlanganlik sertifikatini taqdim qilishi majburiy etildi. Agar tegishli hujjatni taqdim etmaydigan bo‘lsa, ishdan chetlatish chorasi qo‘llandi. Yoki boshqa bir alohid hujjatlar taqdim etilishi talab etiladigan sohalar mavjud. Misol uchun ishga kirayogan xodimga ingliz tilidan Ilts yoki cefr certifikati bo‘lishligi o‘sha korxona yoki muassasada ishning alohida hususiyatidan kelib chiqib majburiy qilib qo‘yilishi mumkin. Ularga oliy ta’lim muassasalari ingliz tili o‘qituvchilarini, shuningdek, hozirgi davrda eng ko‘p tarqalgan ta’lim muassasasi



hisoblanadigan o‘quv markazlarining til o‘qituvchilarini misol qilib keltirish mumkin.

Yana bir qancha alohida xususiyatga ega bo‘lgan ishlar ham mavjud bo‘lib, qo‘srimcha hujjatlar talab etilishi mumkin, ular qonun bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ayrim maxsus sohalar mehnat qonunchiligiga emas o‘zining maxsus qonunchiligiga bo‘ysunishi haqida qoidalar belgilangan.

Ayrim toifadagi xodimlar mehnatining boshqa sohalardan farq qilishi yuridik fanda “differensiya” deb nomланади. Bu haqda yuridik fanlar doktori Sh.Ismoilov shunday deydi. “Mehnatni huquqiy tartibga solishdagi differensiasiya – yuridik ahamiyatga ega omillar asosida mehnat qonunchiligining umumiy qoidalarini ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan aniqlashtirish maqsadida huquq normalarini farqlashdir... Mehnat huquqida huquqiy tartibga solishda differensiasiya muayyan maqsadlarni ko‘zlab amalga oshiriladi. Differensianing chegaralari sifatida farqlar, istisnolar, afzalliklar, xodimlar huquqlarini cheklashlar nazarda tutiladi<sup>3</sup>.”

Yuqoridagi qoidadan kelib chiqib shunday toifali xodimlar ham bo‘lishi mumkinki, ular o‘zining maxsus qoidasi asosida mehnat munosabatlariga kirishadilar. Mehnat kodeksidagi ayrim qoidalar ular uchun istisno bo‘lishi mumkin.

Misol uchun maxsus davlat xizmatchilari xisoblanadigan ichki ishlar vazirligi tizimini olamiz. Ichki ishar tizimiga ishga kirayotgan nomzodlar odatiy mehnat qonunchiligidan farqli tarzda hujjatlar talab etiladi. Mehnat kodeksida esa qanday hujjatlar qabul qilinishligi belgilanib, undan tashqari hujjatlar talab qilish noqonuniy deb belgilangan. Faqat MK bo‘yicha ayrim toifalar uchun qoidalarga

<sup>3</sup> Ismoilov Sh.A.Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari. -Toshkent. 2020-y.



asoslanadi<sup>4</sup>. Ichki ishlar tizimi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan talaba ham ichki ishlar tarkibidagi xodim hisoblanadi.

Xizmatga yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish istagini bildirgan shaxs doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidagi ichki ishlar organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

xizmatga yoki O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida ariza;

pasport nusxasi;

tug‘ilganlik haqida guvohnomasi nusxasi;

qarindoshlarining (ota-onal, er-xotin, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari) pasport nusxalari, nikoh qayd etilganligi yoki bekor qilinganligi, nogironlik (agar mavjud bo‘lsa), qarindoshlarining o‘limi haqidagi guvohnomalari nusxalari (asli ko‘rsatilgan holda);

3 x 4 sm o‘lchamdagagi oltita rangli fotosurat (bosh kiyimsiz), shuningdek, 9 x 12 sm o‘lchamdagagi ikkita fotosurat (bosh kiyimsiz);

nomzodning tarjimai holi; anketa-ma’lumotnoma;

o‘qish, ish (agar o‘qiyotgan yoki ishlayotgan bo‘lsa) va yashash joyidan tavsifnama hamda ma’lumotnoma (oila a’zolari ko‘rsatilgan holda);

o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ma’lumotni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari (asli ko‘rsatilgan holda);

asli ko‘rsatilgan holda harbiy guvohnoma nusxasi (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga topshirayotganda harbiy guvohnoma mavjud bo‘lmasa, chaqiruv uchastkasida qayd etilganligi to‘g‘risida guvohnoma taqdim etiladi);

<sup>4</sup> O‘zbekiston respublikasi Mehnat kodeksi.



asli ko'rsatilgan holda mehnat daftarchasining nusxasi (agarda mavjud bo'lsa).

Shuningdek, xizmat o'tash xususiyatidan kelib chiqib, shuningdek, ayrim hujjatlarga aniqlik kiritish maqsadida nomzoddan yoki tegishli muassasadan qo'shimcha hujjat yoxud ma'lumotlar talab qilib olinishi mumkin<sup>5</sup>.

Ayrim toifadagi xodimlardan talab qilinadigan hujjatlar ham ish talabidan, alohida vazifalar hamda sharoitlarning mavjudligidan kelib chiqadi. Bu haqida yuqorida Mehnat kodeksi bo'yicha talab qilinadigan hujjatlar xususida so'z yuritganda ham aytib o'tildi. Demak, ayrim toifadagi xodimlardan mehnat kodeksida belgilangan hujjatlardan tashqari ham shaxsga doir ma'lumorlar sirasiga kiradigan hujjatlar talab qilinishi, qonun buzilishi emas.

Bu hujjatlar xodim tomonidan taqdim etilgandam keyin ish beruvchida ularni saqlash bo'yicha majburiyat paydo bo'ladi. Agar saqlash va qayta ishslash qoidalari buziladigan bo'lsa ma'muriy va jinoiy javobgarlik vujudga keladi.

Xodim tomonidan boshqa hujjat taqdim etishdan tashqari ham ma'lumotlar ish beruvchiga uzatilishi mumkin. Ko'pincha turli anketalar, so'rovnomalar shaklida ham shaxsga doir ma'lumotlar ish beruvchiga taqdim etiladi. Ushbu materiallarning aksariyati shaxsiylashtirilgan har xil turdag'i hujjatlardan iborat xodimning shaxsiy faylida mavjud bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, qo'shimcha ma'lumotni xodim o'z tashabbusi bilan ish beruvchining vakili bilan og'zaki suhbat paytida, shuningdek, turli xil boshqa yo'llarda taqdim etishi mumkin<sup>6</sup>. Fuqaro tashkilotga ishga kirishda psixologik test yoki so'rovnomalar to'ldirganda ham shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish rejimi amal qilishi zarur. Ularning natijalari ham shaxsga doir ma'lumot hisoblanishi korxonadagi mas'ul mansabdor shaxslar tomonidan hisobga olinishi zarur.

<sup>5</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2017-y., 07/17/3413/0334-son.

<sup>6</sup> [https://studbooks.net/1011214/pravo/pravovaya\\_priroda\\_personalnyh\\_dannyh\\_rabotnika](https://studbooks.net/1011214/pravo/pravovaya_priroda_personalnyh_dannyh_rabotnika)



Xodimning shaxsga doir ma'lumotlari masalasi O'zbekistonda huquqiy jihatdan alohida shakllanayotgan yo'naliш hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash muammosi huquq va axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislari tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim nazariy va amaliy muammolardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini huquqiy ta'minlashning kompleks yechimi ushbu konsepsiyaning ikki tomonlama xususiyatini hisobga olishi kerak. Bir tomondan, shaxsiy ma'lumotlar shaxsning "shaxsiy hayoti" tushunchasining ajralmas qismi bo'lib, shaxsiy hayot qonun bilan himoyalangan.

Xulosa qilib aytganda xodimning shaxsga doir ma'lumotlari himoyasi qonun ustuvorligi kafolati, xodimning shaxsiy xayoti daxlsizligi va ayni vaqtda xodim ijtimoiylashuvining zarur elementidir.